

GEOGRAFIYA FANINI AKADEMIK LITSEYLARIDA O'QITISH METODIKASI

Mukumova H.I – *Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi*

Qazoqova O.X. - *Qarshi shahar 42- maktab o'qituvchisi. O'zbekiston.*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada akademik litseylarda geografiya fanini o'qitish metodikasining mazmuni, maqsad va vazifalari yoritilgan. Unda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar hamda innovatsion yondashuvlar asosida geografiya darslarini samarali tashkil etish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari geografiya fanini o'qitish jarayonini takomillashtirish hamda ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *geografiya ta'limi, akademik litsey, o'qitish metodikasi, interfaol metodlar, pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuv.*

МЕТОДОЛОГИЯ ПРЕПОДАВАНИЯ ГЕОГРАФИИ В АКАДЕМИЧЕСКИХ ЛИКЕЙАХ

Мукумова Х.И. – преподаватель Каршинского государственного университета.

Казокова О.Х. – преподаватель школы № 42 города Карши, Узбекистан.

Аннотация: *В данной статье рассматриваются содержание, цели и задачи методики преподавания географии в академических лицеях. Анализируются вопросы эффективной организации уроков географии на основе современных педагогических технологий, интерактивных методов и инновационных подходов. Результаты исследования служат для совершенствования процесса преподавания географии и повышения качества и эффективности образования.*

Ключевые слова: *географическое образование, академический лицей, методика преподавания, интерактивные методы, педагогические технологии, инновационный подход.*

METHODOLOGY OF TEACHING GEOGRAPHY IN ACADEMIC LYCEUMS

Mukumova H.I. – *teacher at Karshi State University*

Qazokova O.Kh. - *teacher at school 42 of Karshi city. Uzbekistan.*

Abstract: *This article covers the content, goals and objectives of the methodology for teaching geography in academic lyceums. It analyzes the issues of effective organization of geography lessons based on modern pedagogical technologies, interactive methods and*

innovative approaches. The results of the study serve to improve the process of teaching geography and increase the quality and efficiency of education.

Keywords: *geography education, academic lyceum, teaching methodology, interactive methods, pedagogical technologies, innovative approach.*

Kirish: Bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda o'quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, akademik litseylarda geografiya fanini o'qitish jarayonini takomillashtirish, mazkur fanning ilmiy-amaliy ahamiyatini oshirish dolzarb masalalardan biridir.

Geografiya fani orqali o'quvchilarda tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni anglash, hududiy tafakkur, ekologik madaniyat hamda global muammolarni tushunish ko'nikmalari shakllanadi. Shu bois, geografiya fanini o'qitishda an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion ta'lim usullaridan samarali foydalanish zarurati ortib bormoqda.

Akademik litsey o'quvchilarining yosh va intellektual xususiyatlarini inobatga olgan holda, geografiya fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish, nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirish, fanlararo integratsiyani kuchaytirish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, geografiya fanini akademik litseylarda o'qitish metodikasini ilmiy asosda o'rganish va amaliyotga tatbiq etish bugungi ta'lim tizimi oldida turgan muhim va dolzarb vazifa hisoblanadi.

Interaktiv metodlar

- Guruh ishlari va munozaralar: O'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lib, geografik masalalar bo'yicha munozara qilish, ijtimoiy yoki ekologik masalalar yuzasidan fikr almashish. Bu metod o'quvchilarning fikrlash, tahlil qilish va o'z nuqtai nazarini ifodalash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

- Case-study (Holat tahlili): O'quvchilarga real hayotdagi geografik muammolarni taqdim etib, ular ularni tahlil qilib, yechimlarni topishga harakat qilishlari so'raladi. Bu metod o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini oshiradi.

Loyihaviy metod - O'quvchilarga mavzu bo'yicha loyiha yaratish vazifasi beriladi. Masalan, iqlim o'zgarishi yoki turli hududlarning iqtisodiy rivojlanishi haqida loyiha tayyorlash. Bu metod o'quvchilarda mustaqil o'ylash, tadqiqotlar o'tkazish va topshiriqni yakunlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish:

- GIS (Geografik axborot tizimlari): Zamonaviy texnologiyalar yordamida o'quvchilar geografik ma'lumotlarni o'rganishadi, kartalar va xaritalar yordamida turli hududlar haqida ma'lumot oladilar. GIS texnologiyalari yordamida o'quvchilarga hududlarning tabiiy resurslarini, iqlimini, transport tizimlarini va boshqalarni o'rgatish mumkin.

- Virtual ekskursiyalar: Kompyuter va internet imkoniyatlaridan foydalangan holda, o'quvchilar dunyoning turli burchaklariga virtual sayohat qilishlari mumkin. Bu metod o'quvchilarga geosiyosiy va ekologik jarayonlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Muvaffaqiyatli o'qitish uchun o'yinlar va simulyatsiyalar

- Geografik o'yinlar: O'quvchilarni o'yin orqali o'rgatish, masalan, xarita tuzish, yer yuzasining turli shakllarini aniqlash yoki tabiiy resurslarni boshqarish. Bunday o'yinlar o'quvchilarga geografik bilimlarni amaliy ravishda o'rganishga yordam beradi.

- Simulyatsiya va ro'l o'ynash: O'quvchilarni turli ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarda qanday qarorlar qabul qilishlarini simulyatsiya qilish. Bu metod o'quvchilarni mas'uliyatli qarorlar qabul qilishga, global muammolarga yechim topishga o'rgatadi.

Aqliy xarita (Mind map) yaratish - O'quvchilarga mavzu bo'yicha aqliy xarita yaratish vazifasi beriladi. Bu metod yordamida ular geografik tushunchalar va

mavzularni bog'lashadi, ya'ni o'rganilgan bilimlarni tizimlashtirishadi. Bu usul, o'quvchilarning eslab qolish va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Amaliy mashg'ulotlar: Poligon ishlari: O'quvchilarga haqiqiy yer yuzasida yoki sinfda turli kartografik ishlarni bajarishga imkoniyat yaratish. Masalan, xarita tuzish, masofa o'lchash yoki geografik nuqtalarni belgilash.

- Tabiiy hodisalar yoki ekosistemalarni tahlil qilish: O'quvchilarga ekologik yoki tabiiy hodisalar haqida tahlil qilishni o'rgatish. Bu, o'quvchilarga geografiyani nafaqat nazariy, balki amaliy ravishda o'rgatishga yordam beradi.

- *Kartalar va xaritalar yordamida o'rgatish*: Geografik ma'lumotlarni vizual tarzda taqdim etish o'quvchilarning yaxshiroq tushunishini ta'minlaydi. Kartalar, diagrammalar, infografikalar va boshqa vizual materiallar geografik jarayonlarni va xususiyatlarni o'rgatishda samarali yordam beradi.

- *Rasmi materiallar*: Tabiat, iqlim, shahar va qishloq joylarining rasmi ko'rinishlari orqali mavzularni o'rgatish o'quvchilarning tasavvurini kengaytiradi.

- O'quvchilarga turli geografik muammolarni, masalan, iqlim o'zgarishi yoki ekologik buzilishlarni tahlil qilish va muhokama qilishni taklif etish. Bu metod o'quvchilarning fikrlash va o'z nuqtai nazarlarini asoslash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Xulosa: Geografiya darsini akademik litseylarda va kasb-hunar maktablarida o'qitish, o'quvchilarning nafaqat ilmiy bilimlarini, balki amaliy ko'nikmalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Akademik litseylarda geografiya o'quvchilarning umumiy dunyoqarashini kengaytirish, ekologik va ijtimoiy masalalar bo'yicha ongini shakllantirishga yordam beradi. Kasb-hunar maktablarida esa geografiya, o'quvchilarga o'z kasblarida foydalanadigan amaliy bilimlarni berishga qaratilgan. Zamonaviy pedagogik usullar, interaktiv metodlar va texnologiyalarni qo'llash, geografiya darslarini yanada samarali va qiziqarli qilishga yordam beradi. O'qitish jarayonini yanada takomillashtirish uchun pedagoglarga yangicha yondashuvlar va metodlarni qo'llash tavsiya etiladi.

Akademik litsey va kasb-hunar maktablarida geografiya fanini o'qitish o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu ta'lim muassasalarida geografiya fanining metodikasi o'quvchilarning turli ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olib ishlab chiqilishi zarur. Akademik litseylarda nazariy bilimlarga urg'u berilsa, kasb-hunar maktablarida amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga ko'proq e'tibor qaratish talab etiladi. Shuningdek, geografiya fanini o'qitishda interfaol va innovatsion usullar, zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish orqali ta'lim samaradorligini oshirish mumkin. O'quvchilarning mustaqil fikrlash va tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantirish, geografik bilimlarni real hayotga tadbqiq etish o'quv jarayonining asosiy maqsadi bo'lishi kerak.

Taklif va tavsiyalar

1. Akademik litseylarda geografiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, jumladan, interfaol metodlar (klaster, aqliy hujum, debat, loyiha metodi)dan tizimli va maqsadli foydalanishni yo'lga qo'yish tavsiya etiladi.

2. Geografiya darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, xususan, elektron xaritalar, GIS texnologiyalari, multimedia taqdimotlari va onlayn resurslardan keng foydalanish o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

3. Nazariy bilimlarni mustahkamlash maqsadida amaliy mashg'ulotlar, dala tadqiqotlari va kuzatuv ishlarini ko'paytirish, ularni real hayotiy misollar bilan bog'lash lozim.

4. O'quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun fanlararo integratsiyani kuchaytirish, xususan, geografiyani biologiya, iqtisodiyot, ekologiya va tarix fanlari bilan uyg'un holda o'qitish tavsiya etiladi.

5. Dars jarayonida ekologik ta'lim va barqaror rivojlanish g'oyalarini singdirish orqali o'quvchilarda ekologik madaniyat va mas'uliyatni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Adabiyotlar

1. Muqumova H. I. Geografiya darslarida foydalaniladigan interfaol metodlar xususida //Экономика и социум. – 2023. – №. 3-2 (106). – С. 198-202.
2. Muqumova H. I., Toxtamishov A. Ta'limda innovatsion texnologiyalarning o'rni //Экономика и социум. – 2024. – №. 4-2 (119). – С. 320-324.
3. Safarov I. B., Rahmonov A. R. Biogeografiya fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar //Экономика и социум. – 2025. – №. 1-2 (128). – С. 428-431.